



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



XAYRIDDIN SULTONNING “OSMONI FALAKLARDA” HIKOYALARDA OBRAZLAR TALQINI

Abdullayeva Gulmira

Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” nomli hikoyalari to‘plamining badiiy xususiyatlari, unda aks etgan insoniy kechinmalar, milliy qadriyatlar va zamon ruhi tahlil qilinadi. Asarlarda qahramonlarning ruhiy olami, ularning orzu-intilishlari, izardorlari hamda hayotiy kurashlari muallifning o‘ziga xos uslubi orqali yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xayriddin Sulton, hikoya, “Osmoni falaklarda”, obraz*

XX–XXI asr o‘zbek adabiyotida hikoya janri sezilarli darajada rivojlandi. Bu davrda inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib berishga qaratilgan badiiy izlanishlar ko‘plab adiblar ijodida yetakchi o‘rin egalladi. Xayriddin Sulton ham o‘z hikoyalarda jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni, inson qalbining izardorlarini va orzu-havaslarini tasvirlashga alohida e’tibor qaratadi. Uning “Osmoni falaklarda” hikoyalari to‘plami ana shu ma’noda muallifning eng yorqin ijodiy izlanishlaridan biridir. “Osmoni falaklarda” hikoyalari inson orzusi va ruhiy yuksalishiga bag‘ishlangan. “Osmon” obrazi ramziy xarakter kasb etib, orzu-intilish, erkinlik va ruhiy ozodlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Har uchala hikoyada uchuvchilik kasbini mukammal egallagan, kasbini sevadigan, mohir uchuvchilardir. Birinchi hikoyasi bo‘lmish “Ikki karra qahramon” hikoyasida Muhammadkamol Otaboyev 2001-yil 11-sentyabr voqealaridagi jasorati uchun O‘zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlanadi. Ammo yozuvchi uni kasbining fidokori, odamlar hayotini saqlab qolgan qahramon sifati bilan cheklanmay, buni hikoyaning birinchi qismida keltiradi, xolos. Chunki bu holda Otaboyevning jasurligi, nari borsa, o‘z ishining ustasi ekani ochilardi-da, yaxshigina maqola bo‘lar edi. Lekin ichki dunyosi qorong‘i bo‘lib, ma’naviy fazilatlari pardalarga ortida qolib ketardi. Inson sifatida biz uni qanday ekanligini to‘liq his qila olmas edik. Shuning uchun “Ikki karra qahramon” hikoyasida Kamolning faoliyati va shaxsiy hayotidagi ikki fofia yonma-yon qo‘yiladi. Shu tariqa o‘quvchiga qiyoslash uchun maydon ochiladi. Zero, samolyotni boshqarish uchun kasbiy ko‘nikma kerak, uning aniq ko‘rsatmalari bor. Ammo hayot uchog‘idagi falokatlar uchun hech kim yo‘riqnomalishlab chiqmagan. Hayot kishilarni qattiq sinovlarga olib giriftor etadi. Otaboyev har ikkala sinovdan yorug‘ yuz bilan o‘tib, asl qahramon ekanini isbotlaydi. Qahramonligi faqat yo‘lovchilarning hayotini saqlab, ularni eson-omon xavfdan xalos etganida emas, balki arzanda kuyovining razilligini ko‘rib o‘zini bosgani, oriyati yo‘l qo‘ymaganligi sababli uni sharmanda qilmagani, jahlini, g‘azabini bosa olganida edi. Zero hadisi sharifda keltirilganidek, “Birovni kurashib yiqitgan polvon emas, balki g‘azablangan vaqtida jahlini yutgan polvondir”. Yozuvchimining mahorati shunda ko‘rinadiki, bu og‘ir vaziyatda do`stini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ovutib “Sen haqiqiy qahramonsan, ikki karra qahramonsan”, - degan gapiga g`amgin kulimsiragan do`stining “Ha, ehtimol, ammo ikkinchisi o`lgan holda qahramon bo`ldim”,⁶ - deb aytgan holatidagi vaziyat alamlı, qızining taqdiridan kuygan otaning ruhiy azoblanishini kitobxonga jonli va ta’sirli yetkazib bera olganda edi

“Osmoni falaklarda” hikoyasining qahramoni Rashod Shashmetov haqiqiy “osmon lochini”. Bu xarakter ijtimoiy qonunlarga bo`ysunmaydi, erkin, jaydari, bir so`zli, o`zining dunyosi va qonunlariga ega shaxs. N. Pogodin: “Xarakter yaratilsagina badiiy asar yaratiladi”, - deydi, xarakter aniq iroda yo`nalishiga ega bo`lgan, o`z xatti – harakatlari, intilishi, dunyoqarashi bilan ajralib turadigan to`laqonli shaxsdir. Asardagi bu qahramon shu qonuniyatga tushadi. Avval do`sht bo`lib, keyin amalni ko’tara olmay qolgan do’stidan o’ch olish payti kelganda foydalanmaydi, qanchalar qo‘pol, qo‘rs va odamovi bo‘lmisin, ikkita sahna bilan uning asl insoniy qiyofasi ochib beriladi. Biri “O’rtar” ni eshitgandagi holati bo`lsa, Shamshetov avval mohir uchuvchiligi, keyinroq mansab tegib o‘zini yo‘qotib qo‘yan Eshbekov bilan og‘ir vaziyatda yuzma-yuz keladi. Ya’ni jinoyati uchun qo‘lga olingan Eshbekovni xorijdan yurtga samolyotda olib ketish kerak bo‘ladi. Rulda esa Shamshetov. Ammo u qudratli tashkilot vakillari ko‘ziga tik qaragancha: “Men samolyotimda uchuvchi zotini xor qildirib qo‘ymayman, uqdingmi?” deb uzil-kesil qarorini aytadi. Eshbekov vazirlarga xos izzat-ikrom bilan uchadi, ammo Shamshetov ham ko‘p o’tmay joyidan “uchib ketadi”. Barcha Eshbekovdan yuz o‘girgan chog‘da, o‘rtalarida qancha gap o‘tgan bo‘lmisin, erkakcha yo‘l tutgan Shamshetov yuragidagi qasos o‘tini bosa olgani uchun ham qahramonlik bo`lishga munosibdir. Garchi keyinroq u haqida turli gap-so‘zlar oralasa ham muallif ularga ishonmaydi, biz ham ishonmaymiz.

“Bir kishilik aviahalokat” nomli hikoyasi retrospetiva usulida yozilgan, asarni o`qib o`quvchi bosh qahramon Iskandar Isroilovning qalb kechinmalarini, vijdon azobini, ruhiy iztirobini xuddi o`ziniki kabi his qiladi. To`plamdagagi bu hikoya ikkala hikoyadan keskin farq qiladi. Sadafning xiyonati, Iskandarning xatolari, “Xiyonatning jazosi – xiyonat” ekanligi haqqoniy va hayotiy tasvirlangan. Hikoyada ijodkor topqirligining yaqqol misoli sifatida Sadaf va Yaxshigul obrazlarining kontrastida yaqqol ko`zga tashladi: “Qirguli va Yaxshigul bir-biriga teskari dunyo. Qirdagi o‘simpliklar kurashuvchan, sabr-bardoshli, ildizi mustahkam, tirik qolish uchun turli hiylalardan xabardor bo‘ladi. Yaxshi gullar esa xonaki bo‘ladi. Ular beozor, ko‘zni quvnatuvchi, sadoqatli va ko‘nuvchan. Agar qirdagilar suvgaga yetish uchun ildizini yoysa, tonggi shabnamamlarni kutib tursa, xonaki gullar sohibi marhamatiga zor turadi. Achinarlisi, qirdagi gullar qancha chiroyli bo‘lmisin, ko‘pincha mol-holga yem bo‘ladi: muhabbat bo‘stoniga sigir oralab ketadi...”⁷

“Osmoni falaklarda” hikoyalarida yozuvchi insoniy hayotning turfa qirralarini ochib beradi. Hikoyalar orqali qahramonlarning ruhiy olam tasvirini faqat tashqi harakatlari bilan emas, balki ularning ichki dunyosi, ong osti kechinmalari orqali ko‘rsatadi. Bu jihatdan

⁶ Xayriddin Sulton “Osmoni falaklarda” Toshkent “Adabiyot” nashryoti. 2025-yil. 19-bet.

⁷ Otabek Bakirov “Yig’lay-yig’lay tugatdim oxir” jadid.uz





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Xayriddin Sulton modernist adabiyot uslubiga yaqinlashadi. Hikoyalarni tili sodda, shu bilan birga ramziy obrazlarga boy. “Osmoni falaklarda” iborasi ham inson orzu-intilishlarining cheksizligini, hayotiy kurashdagi yuksak maqsadlarni ifodalaydi.

To‘plamdagagi hikoyalarda qahramonlar oddiy insonlar bo‘lishiga qaramay, ularning hayotiy taqdiri, qalb iztiroblari umumiyligi falsafiy ma’noga ega. Har bir obraz muallifning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi ramz sifatida maydonga chiqadi. Misol uchun, ayrim hikoyalarda qahramonning osmon sari intilishi – bu uning ruhiy ozodlikka, erkinlikka intilishining badiiy ifodasidir. Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” hikoyalari to‘plami o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotida muhim bosqichlardan biridir. Unda inson ruhiyatining nozik qirralari, milliy qadriyatlar va falsafiy mushohadalar uyg‘unlashib, zamonaviy adabiyotimiz uchun o‘ziga xos badiiy makon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. O‘zbek hikoyachiligidagi zamon va shaxs muammoasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Jo‘rayev M. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Sulton X. Osmoni falaklarda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, [chiquish yili].
4. Islomov Q. Zamonaviy o‘zbek nasri poetikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

